

OIV/OITS KASALLIGINING PROFILAKTIKA CHORA TADBIRLARINI BAHOLASH

Ashurova Aziza Shuxratovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali o'qituvchisi Bolalar shifokori

Muammoning dolzarbligi: Bugungi kunda OIV infeksiyasi butun dunyo bo'yicha dolzarb muammolardan biriga aylangan kasallik hisoblanadi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan OIV/OITS kasalligi bo'yicha tayyorlagan Qo'shma Dasturiga (YuNEYDS) asosan va unda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra hozirgi kunga qadar dunyoda 34,2 mln kishiga OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslar ro'yxatga olingan. Ushbu kasallikni har yili 2,5 mln kishi yuqtirib, 1,7 mln kishi vafot etmoqda. Dunyo bo'yicha har kuni 7 ming, har soatda 300 nafar shaxs OIV infeksiyasini o'ziga yuqtirib olmoqda.

O'sish va rivojlanishning kechikishi ko'pincha OIV bilan kasallangan bolalarda (20-80%), ayniqsa OIV infeksiyasining keyingi bosqichlarida kuzatiladi. OIV infeksiyasi rivojlanib borishi bilan o'sishning sustlashishiga olib kelishi mumkin. OIV infeksiyasi aniqlangandan buyon yo'qotilgan tana vazni (tana vaznining 5% dan ko'prog'ini yo'qotish yoki BMI <20,5 kg / m² yo'qotish sifatida tavsiflanadi) asosiy klinik muammo bo'lib kelgan, chunki u kasallik va o'limni aniqlaydi.

Respublikamizda 2014 yil yanvar oyi ma'lumotlari bo'yicha OIV infeksiyasi aniqlangan insonlarning soni 28 250 nafarni tashkil qilmoqda. Shulardan erkaklar - 53,6%, ayollar- 46,3% ni tashkil etmoqda. Ularning 65,2% ni 25-49 yoshdagilar tashkil etadi.

OIV infeksiyasi bilan aniqlangan kasallar sonini Respublikamiz xududlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni Toshkent shaxri, Toshkent, Andijon, Samarqand va Farg'ona viloyatlari tashkil etmoqda.

Tadqiqot maqsadi: OIV/OITS kasalligining tarqalganligini va profilaktika chora tadbirlarini baholashdan iborat.

Tekshirish usullari va materiallari: Tadqiqot ishi 2020-2024 yillar mobaynida Toshkent shahridagi Respublika OITSga qarshi kurash markaziga retrospektiv tahlillaridan, Toshkent shahar OITSga qarshi kurash markazi va Termiz shahar OITS qarshi kurash markazi malumotlari asosida olib borildi.

Tadqiqot natijalari: Respublikamizdagi kasallanish ko'rsatkichlarini jinslar bo'yicha tarqalganligi oldingi yillarda kasallik asosan erkaklar o'rtasida ko'p uchragan, oxirgi yillarda esa ayollar o'rtasida ortib bormoqda va bu kasallikning bolalar orasida ko'payishiga olib kelmoqda. Pandemiyaning to'xtatishga imkon bermayotgan omillar,

bular - OIV infeksiyali bemorlar umrining oxirigacha virusni yuqtirish xavfini saqlab qolishi, virusning genetik o'zgaruvchanligi (mutatsiya) tufayli dunyo miqyosida kasallikning oldini olishga qodir samarali vaksinaning yo'qligi, kasallikni chaqiruvchi virusga samarali ta'sir etuvchi davolash vositalarining hozircha topilmaganligi, kasallik asosan xulq-atvori buzuvchi xavfli guruhlar orasida (giyohvand moddalarni tomir orqali qabul qiluvchi, moddiy rag'batlantirish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchilar) tarqalishiga moyilligi va ular bilan samarali ishlash imkoni qiyinligi, mehnat migrantlarining tobora ko'payib borayotganligi va aholining bu kasallik haqida yetarlicha bilimga ega emasligi ko'rsatilmoqda.

Xulosa: OIV/OITS kasalligini oldini olishda quyidagilarga qat'iy amal qilish kerak:

1. Parenteral muolajalar olganda faqat bir marta ishlatiladigan shprislar va ignalardan foydalanish;
2. Qon va qon maxsulotlarini OIVga tekshirilgandan keyingina ishlatish tavsiya etiladi;
3. Operativ - rejimli tadbirlar chog'ida rezina qo'lqoplardan foydalanish kerak;
4. Shaxsiy gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish (birovning soqol olish asbobidan, tish cho'tkasidan foydalanilmaslik);
5. Nikoxdan o'tuvchilarga OIVga to'liq tekshirilganidan keyin ruxsat etish;
6. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilariga OIV infeksiyasi bo'yicha seminar-treninglar tashkil qilish;
7. Aholining barcha qatlamlarida xususan 18-45 yoshli aholi orasida OIV infeksiyasini oldini olishga qartilgan profilaktik chora-tadbirlar sanitariyatarg'ibot ishlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.